

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA UNI QO'LLASH

Nurqulova Malohatxon Asqaraliyevna

Andijon viloyati Paxtaobod tumani Paxtakor qishlog'i Qoraqo'rg'on mahallasi 21 - umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ko'rgazmalilikning turli xil manbalaridan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning diqqatini oshiradi va rivojlantiradi, o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi va vaqtni tejash imkonini beradi.

Tabiiy fanlarga qaraganda matematikadan ko'rgazmalilik va ko'rgazma manbai tubdan farq qiladi. Tabiat fanlarida narsalarning aynan o'zini ko'rsatish imkoni bo'lsa, matematikada esa abstrakt xarakterga ega, bo'layotgan hodisaning o'zini aynan ko'rsata olish imkoni kam.

Kirish so'zlar : matematikada ko'rgazmalilik, ko'rgazma qurollarga qo'yiladigan talablar, darslik va o'qitishning tarbiyaviy vazifasi.

Matematikada ko'rgazmalilik quyidagi ko'rinishlarga ega :

--- Ko'rsatilayotgan obyektlar to'plamining elementlari sifatida qaraladi, ular ustidan ba'zi amallar bajarish mumkin. Masalan, o'qituvchi savatdagi olma, daraxtdagi qushlar haqida gapirganda, olmaning yoki qushlarning qandayligi haqida to'xtalmadi, balki ularning soni va sonli munosabatini aniqlaydi.

--- U yoki bu narsa haqida gap yuritilganda, uning shaklini yoki narsaning miqdorini sonli xarakterini tekshirish mumkin. Narsalarning munosabatini o'z holicha va shakllarini ko'rishda ko'pincha hodisaning aynan o'zidan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchiga turli xildagi ko'rgazmalilik, birinchi navbatda modellar, chizma, sxemalar yordam beradi. Matematika o'qitishning turli xil bosqichlarida va uning turli xil bo'limlarida ko'rgazmalilikda bir xilda foydalanish kerak emas. O'quvchilarga matematika o'qitishning darslikka tayangan holda har bir darsni mavzuga doir turli xil ko'rgazmalardan foydalanib o'tish zarur. Masalan, boshlang'ich sinflarda mavzuni uch xonali sonlarga doir misol va masalar yechish deb olsak, turli kesatmayapman foydalanib, o'quvchilarni darsga qiziqtirib, mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga ko'mak beradi. O'quvchilarni 2 guruhga ajratib, doskada ikkita bir mevali daraxtlardan foydalanib, mevalarni ostiga uch xonali sonlarni yozib, aralashtirib ko'rgazmali daraxtga ilib chiqiladi va guruhlarning biri raqamlarni o'sib borish tartibida birin - ketinlik bilan yashikka joylashadi. Agarda biror o'quvchi mevani o'sib borish tartibida xatoga yo'l qo'ysa, u o'quvchini olmasi zaholangan hisoblanadi va savatchaga joylanadi. Yana bir guruh o'quvchilar huddi shu usulda raqamlarni kamayib borish usulida joylashadi. Ikkala guruh ham mevalarni yashiklarga joylab bo'lgandan so'ng qaysi guruhning savatchasida zaholangan olmalar soni ko'p bo'lsa, shu guruh yutkazadi va g'olib guruh rag'batlantiriladi. Shunday qilib har bir darslarimizni o'quvchilarni qiziqtirib o'tishimiz lozim.

Ko'rgazma qurollarga qo'yiladigan talablar. Ko'rgazma samarali bo'lishi uchun ba'zi bir talablarga rioya qilishi kerak. Ko'rgazmali qurollarga qo'yiladigan umumiy talablar : mazmunining ilmiyligi, o'quv dasturiga mosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi. Yasalishi va ichki ko'rinishining ko'rish masofasiga mosligi, bajarilishining tozaligi, foydalanishning qulayligi, matematikani tushuntirishga foydaliligi. Matematika o'qitishdagi ko'rgazma manbalari mazmun jihatdan sodda va aniq bo'lishi kerak. Bu ko'rgazmali

qurollar matematika o'qitish bosqichlarida ketma - ket quyidagi tartibda qo'llaniladi : a) atrofdagi mavjud narsalar , b) o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan narsalarning tasvirlari va rasmlari , c) shu narsalarning shartli tasvirlari , d) sxemalar va hakazo. O'qituvchi doimo o'z oldiga "Darslikdagi o'quv materiali o'quvchiga qanday tarbiya beradi ?" degan savolni qo'yishi kerak. Darslikda berilgan ko'pchilik mazmun va matnli masalalar faqat ta'lim maqsadlarini hal qilishi kerak , degan fikr mutlaqo noto'g'ri. Chunki bu mazmun va mashqlar ko'rina tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshiradi. Darslikda tavsiya qilingan har xil turdagi mashqlar boshlang'ich sinfda matematika o'qitish orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy masalalarning bajarilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Xulosa.Boshlang'ich sinf matematika darslarida ko'rgazmalilik va darslikning ahamiyati va uni qo'llash usullari ko'rib chiqildi. Bunda o'quvchilarni keng fikrlashiga , sezgirlikka ,faolligiga , birorta ham o'quvchi darsda e'tiborsiz qolmasligiga va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy vazifalarni hal etish uchun darslikda illyustrativ (tasvirli) materiallar ko'rsatilgan. Ular o'quvchilarning konkret va abstrakt fikrlashini rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E. Jumayev , Z.G'.Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T. "Fan va texnologiya" .2005
2. M.E.Jumayev. " Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi laboratoriya mashg'ulotlari " . - T. 2006
3. M.E.Jumayev. " Matematika o'qitish metodikasidan praktikum " - T. 2004